

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI



ISSN 3030 - 3230

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN



www.mgjxu.uz

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY



konstitutsiya, inson huquqlari
va milliy qonunchilik



jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi



harbiy sohadagi islohotlar



ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb
nazariy-amaliy masalalari



ta'lim-tarbiya jarayoni



iqtisodiyot: nazariya va amaliyot



texnika va texnologiyalar taraqqiyoti



xorijiy tajriba



yosh olimlar minbari

2026, №1



@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120



t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti
t.me/jxueditor



jamoatxavfsizligi_universiteti



e-mail:jurnal@mgjxu.uz

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy amaliy jurnali

TAHRIR KENGASHI:

ISLAMOV
Baxtiyor Djaxangirovich

TASHMATOV
Baxodir Xamidovich

DJURAYEV
Rustam Mirzayevich

ABJANOV
Baurjan Sadikovich

XAKIMOV
Raxim Rasuljonovich

SAIDOV
Akmal Xolmatovich

MAMAYUSUPOV
Sarvar Dexkanovich

Bosh muharrir:
RUSTAMBAYEV
Mirzayusup Xakimovich

MAMASIDDIQOV
Muzaffarjon Musajonovich

MIRAKULOV
Miravzal Mirodilovich

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Turg'unov Oybek Karimovich
Zulfiqorov Sherzod Xurramovich
Abdurayimov Sobirjon Sayipjonovich
Selimanova Svetlana Mixaylovna
Mirazov Davron Miragzamovich
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
Xoliqulov Umid Shodiyevich
Usmonov Muxammadi Baxriddinovich
Yoqubov Aleksandr Sanjarovich
Urmonov Jahongir Jaloldinovich
Tashmanov Erjan Baymatovich
Xaqnazarov Xudoyberdi Dilmurodovich
Mirzayev Gulom Rizoqulovich
Ikanov Azamat Miragzamovich
Narkulova Indira Rustam qizi

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni, general-polkovnik, harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari – Jamoat xavfsizligi departamenti boshlig'i, general-mayor, dotsent, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

Qozog'iston Respublikasi Milliy gvardiyasi Bosh qo'mondoni o'rinbosari, general-mayor, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Inson huquqlari Milliy markazi direktori

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondoni o'rinbosari, polkovnik, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i, polkovnik, yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor, 1-darajali adliya maslahatchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi sho'ba mudiri, podpolkovnik, yuridik fanlar doktori, professor

Bosh muharrir:

RUSTAMBAYEV
MIRZAYUSUP XAKIMOVICH

Mas'ul muharrir:

ZULFIQOROV
Sherzod Xurramovich

Mas'ul kotib:

TOSHBEKOV
Nuriddin Narzulla o'g'li

Muharrir:

Murakayeva Zuxra Ilgizarovna

Dizayner:

Toshbekov Nuriddin Narzulla o'g'li

Korrektor:

Qurbonov Bahrom

Tahririyat manzili:

Toshkent viloyati, Chorsu qo'rg'oni

Tel: (71) 230-32-71

Faks: (71) 230-32-50

E-mail: jurnal@mgjxu.uz

web-site: mgjxu.uz

Muassis:
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

"JAMOAT XAVFSIZLIGI" ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Tashmatov B.X.
Yunusobod tumanidagi kriminogen vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari tahlili **03**

Rustambayev M.X.
Ekologik huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirish muammolari **10**

Zulfiqorov Sh.X., Payziyev A.M.
Millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish narkojinoyatlarga qarshi kurashishda muammo va yechimlar **15**

Муракаев И.И.
Интеллектуальные цифровые двойники в системе обеспечения общественной безопасности: от кибернетической теории к практике применения **19**

**I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI
VA MILLIY QONUNCHILIK**

Ruziyev R. Dj.
Qonun va huquq analogiyasining mazmun-mohiyati **25**

Dadasheva A. A., Shokirjonova R.M.
O'zbekistonda onlayn tavakkalchilik o'yinlariga tobelik muammolari va tahdidlar **29**

Низаметдинходжаев У.Р.
Принципы и стандарты обеспечения прав человека в процессе реализации международного антикриминального сотрудничества **33**

Zokirov B.
Preliminary Analysis of the Implementation of Returned Criminal Assets and the Role of Civil Society in These Processes **39**

Qilichev X.M.
Fuqarolar yig'inlari faoliyatini tashkil etishda fuqarolik-huquqiy shartnomalarning o'rni **45**

MUNDARIJA

52 Allamurodov O.A.
Servitut shartnomasining shakli va servitutni ro'yxatdan o'tkazish

57 Najmutdinova M.F.
Vasiylik va homiylik organlari faoliyatida qonuniyligni ta'minlashda prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari

62 Ilxombekov J.I.
O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari

69 Rixsimov K.A.
Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tushunchasi va uning nazariy manbalari

75 Muxamedov U.T.
Fuqarosizlikni qisqartirishning ma'muriy - huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish

80 Nasrullayev F.S.
Ekstraditsiya va mahkumni topshirish institutlarining huquqiy tamoyillari va rivojlanishi tendensiyalari

85 Xudayberganova D.Z.
Yetim bolalarga ism, familiya va sharif berishda amalda uchrayotgan kamchiliklar va ularning bola huquqlariga ta'siri

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI

90 Usmonova M.A., Yarashev B.Ch.
Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish: islohot natija va yechimlar

94 Maxsadorov M.I.
Xavfsiz shahar va xavfsiz mahalla konsepsiyalari doirasida davlat organlari hamkorligi tahlili: Milliy gvardiya va ichki ishlar organlari misolida

104 Yusupov M.B.
Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish: xalqaro tajriba va tahlil

110 Ortikov J.A.
Jamoat xavfsizligini ta'minlaydigan kuch ishlar tuzilmalarning o'q otish tayyorgarligida qo'llaniladigan metodikalarni takomillashtirish masalalari

115 Shaymardonov J.Z.
GPS texnologiyalarining jamoat xavfsizligidagi o'rni va xorijiy tajribalar



OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSI TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY MANBALARI

Rixsimov Komron Abrorovich,

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
ilmiy xodim tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada jinoiy jazo tizimida muhim o'rin tutadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining tushunchasi, uning nazariy manbalari hamda huquqiy mohiyati har tomonlama tahlil qilingan. Muallif tomonidan jazo institutiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari ochib berilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligi normalari tahlil qilinib, ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashda adolat, maqsadga muvofiqlik va individual yondashuv tamoyillarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ozodlikdan mahrum qilish jazosi, jinoiy jazo, jinoyat huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi, jazo funksiyalari, resotsializatsiya, jinoiy javobgarlik, sud hukmi, jazoni ijro etish muassasalari, jazoni liberallashtirish.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi jahon huquq tizimida, xususan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida jazo choralarining eng og'ir va asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Bu jazo turi jazoni ijro etish muassasalarida mahkumning jamiyatdan majburiy ajratgan holda, uning harakatlanish erkinligi, mehnat faoliyatini tanlash imkoniyati va vaqtdan foydalanish huquqini cheklash bilan bog'liqdir.

Ozodlikdan mahrum qilish – jinoyat sodir etgan shaxsni muayyan muddatga yoki umrbod belgilangan joyda saqlash orqali uning shaxsiy erkinligini to'liq cheklashga qaratilgan jazo turi hisoblanadi.

Jazo tushunchasi jinoyat huquqi nazariyasida katta ahamiyatga ega. Jazo tushunchasiga ko'plab xorijiy va o'zbek olimlar tomonidan bir qancha ta'riflar keltirib o'tilgan.

Xususan, N.A.Struchkov jazoga shunday tarif beradi: “Jazo muayyan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va har bir turdagi jazo uchun qonunda belgilangan huquqiy cheklashlardan iborat bo'lgan jinoyatlarning oldini olish chorasidir[1].

M.X.Rustamboyevning esa “Jazo – bu jinoyat huquqining muhim institutlaridan biri hisoblanib, u jinoiy javobgarlikni tatbiq etishning yetakchi shaklidir”[2] – deb tarif berib o'tadi.

Demak, jinoiy jazo faqat sud tomonidan aybdor deb topilgan, ya'ni sodir etganlik uchun jazo belgilangan harakatlarni amalga oshirgan shaxslar uchun qo'llaniladi.

M.Usmonaliyev tomonidan ham o'xshash

tarif berib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra “jinoiy jazo jinoyat huquqining eng muhim institutlaridan bo'lib, jinoyat huquqi funksiyasini hayotga tatbiq etishning asosiy vositasi hisoblanadi”[3].

Jazobu sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning oqibati hisoblanadi. Jinoyat kodeksida keltirib o'tilgan ayb uchun javobgarlik, uning muqarrarlik prinsiplarini amalga oshirish uchun ham jazo tayinlanishi lozim. Aks holda jinoyat uchun yetarli darajadagi jazo tayinlanmasligi jamiyatda jinoyatchilikni oldini olish va belgilangan tartib qoidalarga shaxslarda itoat hissini shakllantirishni amalga oshirishning imkoni bo'lmaydi.

Jazoning funksiyalariga keladigan bo'lsak, D.A.Shestakovning fikricha, ijtimoiy xavfli qilmish uchun belgilanadigan jinoiy-huquqiy ta'sir choralar bugungi va o'tmishdagi sharoitda quyidagi funksiyalarni amalga oshira olishi lozim:

– jinoyat sodir etgan shaxsni qayta shunga o'xshash harakatlarni amalga oshirmasligi uchun tiyib turish;

– restitutsiya (jabrlanuvchining holatini tiklash);

– jinoyatchini resotsializatsiya qilish[4].

I.V.Shmarov esa jazoning funksiyalari sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi:

– ijtimoiy nazorat funksiya;

– tarbiyaviy funksiya;

– ogohlantirish funksiyalarni amalga oshiradi[5].

Fikrimizcha, I.V.Shmarov tomonidan keltirib o'tilgan funksiyalar nisbatan kengroqdir. Jazoning ijtimoiy nazorat funksiyasi bu davlat va jamiyatning jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan



aks munosabati hisoblanib, bunda jinoyatning nafaqat jabrlanuvchiga, balki butun jamiyatga ta'siri inobatga olinadi va shu asosda jinoyatchiga nisbatan ta'sir choralari qo'llaniladi.

Davlat jazo qo'llash orqali ijtimoiy hayotdagi munosabatlarni adolat tamoyillari asosida tartibga solib turadi. Jazoning tarbiya funksiyasini amalga oshirish uchun tayinlangan jazo turiga, uni amalga oshirish usullari va joyi kabi turli omillar ta'sir qiladi. Shu orqali jinoyat sodir etgan shaxsning delikt hulq-atvori o'zgartirib boriladi.

Jazoning ushbu funksiyasi ayni paytda jamiyatdagi boshqa shaxslarga ham ta'sir o'tkazadi. Masalan, sud tomonidan chiqariladigan adolatli hukmlar shaxslarda qonunlarga hurmat hissini uyg'otishi va o'z harakatlariga bo'lgan mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Jazoning ushbu funksiyasi ayni paytda jamiyatdagi boshqa shaxslarga ham ta'sir o'tkazadi. Masalan, sud tomonidan chiqariladigan adolatli hukmlar shaxslarda qonunlarga hurmat hissini uyg'otishi va o'z harakatlariga bo'lgan mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Demak, **ozodlikdan mahrum qilish jazosi – muayyan maqsad va vazifalarga ega bo'lgan, jinoyat qonunchiligida ifodalangan, davlat tomonidan sud hukmi orqali aybdor shaxsga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir chorasi hisoblanadi.**

O'zbekiston Respublikasida jinoiy jazolarni liberallashtirish jarayonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lgan jazo turlari qisqartirilib borilmoqda. Xususan, qamoq va o'lim jazolari jinoyat qonunchiligidan chiqarib tashlandi.

Bundan tashqari, mol-mulkni musodara qilish kabi jazo turi bekor qilinib, boshqa samaraliroq jazo turlari jinoyat qonunchiligiga kiritildi.

Zamonaviy adabiyotlarda keltirilishicha, jahondagi jinoiy jazo tizimida ikkita katta inqilobiy hodisa ro'y berdi.

Birinchi inqilob turli mamlakatlarda turli davrlarda amalga oshirilib, XX asrning boshlariga borib o'z nihoyasiga yetdi. Inqilob natijasida qadimdan mavjud bo'lgan shafqatsiz jazo turlari, mahkumlarni o'ldirish jarayonidagi qiynoqlar va boshqa g'ayriinsoniy jazolardan voz kechildi va bunday jazolar o'rniga mahkumlarni axloqan tuzatishga umid qilgan holda ma'lum muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo turi keng qo'llanila boshlandi.

Birinchi inqilob tugashi bilan ma'lum bo'lib qoldiki, mahrumlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash orqali ham aslida jinoyat sodir

etgan shaxslarni axloqan tuzatish, ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadiga erishib bo'lmaydi, aksincha ozodlikdan mahrum etish muassasalarining o'zi "jinoyatchilar fabrikasi"ga aylanib qolmoqda.

Ikkinchi inqilob esa hozirgacha davom etib kelmoqda va bu inqilobda davlatlar asosan jinoyat qonunchiligiga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar va boshqa huquqiy ta'sir choralarni kiritish orqali jazoning asl maqsadiga erishish ko'zlangan[6].

Ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo salbiy va ijobiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu to'g'risida bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining salbiy va ijobiy tomonlari to'g'risida I.Ya.Foynitskiy o'z fikrlarini keltirib o'tgan va ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijobiy tomonlariga u quyidagilarni kiritadi.

Birinchiidan, ozodlikdan mahrum qilish jazosi boshqa jazo turlaridan farqli ravishda ancha muddatni o'z ichiga oladi va uzoq muddat jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan davomiy ta'sir o'tkazish imkoniyatini kengaytiradi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi uzoq muddatni qamrab olishi tufayli mahkum shaxslarga ta'sir etishning turli usullarini qo'llab ko'rish mumkin.

Ikkinchiidan, ozodlikdan mahrum qilish jazosi mahkumga moddiy va jismoniy ta'sir o'tkazishdan tashqari uning psixologiyasiga va dunyo qarashiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Uchinchiidan, ushbu jazo turi shaxsni ozodligidan mahrum qilish bilan birga uni majburiy mehnatga ham jalb etadi va bu orqali davlatga iqtisodiy tomondan naf olib keladi[7].

I.Ya.Foynitskiy keltirgan ushbu fikrlarga qisman qo'shilishimiz mumkin, chunki u ta'kidlab o'tganidek haqiqatan ham ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati va uni o'tash sharoitlari mahkumga nisbatan turli ta'sirlar o'tkazish va har bir mahkum hulq-atvoriga nisbatan individual yondashish imkonini beradi.

Mahkum ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan muddat davomida jamiyatdan ajratib qo'yilishi va jazoni belgilangan maxsus ozodlikdan mahrum etish muassasalari o'tashi mahkumning jinoiy hulq-atvorini o'zgartirish va jazoning asl maqsadini amalga oshirishda turli choralar qo'llash uchun qulay imkon yaratib beradi.

Lekin, I.Ya.Foynitskiy bildirganidek, jazoni ishjo etish muassasalaridagi mahkumlarni majburiy mehnatga jalb qilish har doim ham



davlatga iqtisodiy foyda keltirmaydi, chunki mahkumlarni saqlash, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, qo'riqlash va ularni axloqan tuzatish bilan bog'liq turli vositalarni qo'llash davlatga ancha ko'p mablag' sarflashini talab etadi. Bu xarajatlar mahkumlar keltiradigan iqtisodiy nafdan ancha yuqoriroq bo'ladi.

I.Ya.Foynitskiy ozodlikdan mahrum qilish jazosining salbiy tomonlari haqida ham yozib o'tgan bo'lib, insonni jamiyatdan, oila a'zolaridan ajratib qo'yish va uni bir muassasada ham yashashga ham ishlashga majbur qilish mahkumni axloqan tuzatishga olib kelmasligini bildirgan. U o'z maqolasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi jinoiy jazo tizimida keng qo'llanilishini qoralagan.

Ba'zi rus olimlari tomonidan adabiyotlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosi to'g'risida turli xil yondashuvlar va fikrlar keltirib o'tilgan.

Masalan, S.I.Dementevning fikricha, ozodlikdan mahrum qilish jazosi nafaqat ozodlikdan mahrum qilingan shaxsni maxsus muassasaga muayyan muddatga joylashtirishni, balki ozodlikdan mahrum qilingan shaxsni fuqarolik huquqlaridan ham mahrum qilishni anglatadi[8].

S.I.Nikulinning ta'kidlashicha esa ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan izolatsiya qilish va xulqini o'zgartirishdan iborat[9].

N.D.Sergeyevskiy fikricha, bu shunday jazo turiki, unda jinoyatchi maxsus tashkil etilgan joylar –qamoqxonalarda saqlanib, o'rnatilgan rejim va maxsus hayot tarziga ega bo'ladilar[10].

Ushbu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, asosan sovet davri olimlari ozodlikdan mahrum qilish jazosi borasida yakdil fikrga ega bo'lmaganlar va bu davrda ozodlikdan mahrum qilish tushunchasiga nisbatan tor doiradagi fikrlar berilgan.

Ozodlik mahrum qilish tushunchasiga o'zbek yuridik adabiyotlaridaha turli fikrlar, tushunchalar berilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi yuridik ensiklopediyasida ozodlikdan mahrum qilish deganda, mahkumni jamiyatdan ajratib, jazoni ijro etish koloniyasiga yoki turmaga joylashtirishdan iborat jazo turi tushuniladi deb ta'rif berilgan[11].

X.Ochilov fikricha, ozodlikdan mahrum qilish deb – mahkumni jamiyatdan ma'lum muddatga ajratishga aytiladi.

Mahkumni jamiyatdan ajratish:
jazoni ijro etish koloniyasiga yuborish;
turmaga joylashtirish orqali amalga oshiriladi[12].

M.Rustamboyevning keltirishicha, ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan

ajratib, jazoni ijro etish yoki koloniyaga joylashtirishdan iborat. Bunda boshqa jazolardan farqli ravishda ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash orqali mahkumning huquqlarini cheklash kompleks xususiyatga ega bo'lib, mahkum ruhiy va jismoniy jihatdan jamiyatdan, o'zi o'rgangan muhitdan izolatsiyalanib, jazoni qo'llash orqali belgilangan maqsadga erishish uchun maxsus tartib qo'llaniladi. Jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi ulkan ta'sir chorasi hisoblanib, uni qo'llash qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatsa, noto'g'ri qo'llash ham shunchalik salbiy bo'ladi. Bularning barchasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ayniqsa, sudlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashda katta mas'uliyat yuklaydi[13].

E.Norbutayev esa, ozodlikdan mahrum qilish, eng og'ir jazolardan bo'lib, xavfli jinoyatlar uchun aybdorni jamiyatdan ajratilgan sharoitda unga majburiy ta'sir choralari ko'rsatish zarur bo'lganda qo'llaniladi. Ozodlikdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida jinoyat kvalifikatsiya qilingan modda sanksiyasida ko'rsatilgan muddat doirasida tayinlanadi[14].

Olimlarimiz tomonidan berilgan ushbu tariflar asosan qonunchiligimizda keltirilgan normalar asosida shakllantirilgan deyishimiz mumkin chunki ular tomonidan berilgan fikrlar deyarli bir-birini takrorlaydi.

Usmonaliyev tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazo mohiyatiga nisbatan kengroq ta'rif berib o'tilganligini va mohiyatiga kriminologik jihatdan yondashilganligini ko'rishimiz mumkin. Uning fikrlariga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilinganlar uzoq muddat oila muhitidan, mehnat jamoasidan, umuman jamiyatdan ajratilganligi, ularning ruhiy holatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Jazoni o'tash vaqtida o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimi, kasbi va boshqa yashash uchun daromad manbai bo'la oladigan hunarini esdan chiqaradi. Bunday tashqari ular doimiy ravishda nazorat ostida bo'lganligi bois, uzoq muddat mobaynida ana shunday sharoitda saqlanishi mahkumning ruhiy holatiga ta'sir etmay qolmaydi. Shuningdek, ozodlikdan mahrum etilgan shaxsning jazosini ijro etishi davlatga katta miqdordagi mablag'larni sarflashni talab etadi[15].

Professor Najimov M.Sh. ozodlikdan mahrum qilish jazosiga quyidagicha yangi ta'rif berishni taklif qiladi. "Ozodlikdan **mahrum qilish** – jinoiy jazoning bir turi bo'lib, shaxsni sodir qilgan jinoyati uchun qonunda belgilangan tartibda sud hukmida belgilangan muddatga jamiyatdan ajratgan holda,



jazoni ijro etish muassasalariga joylashtirish va uni mazkur muassasa chegarasidan tashqarida erkin harakatlanish imkoniyatidan mahrum qilishdan iborat”[16].

Ma'lumki, ozodlikdan mahrum qilish jazosi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksining 45-moddasida ko'rsatilgan jazoni ijro etish muassasalari tomonidan, ya'ni jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari va turmada ijro etilishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, ushbu moddaga binoan tergov hibsonalari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga jazoni ijro etish muassasalari vazifasini o'taydi.

Jazoni ijro etish muassasalari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish maqsadida tashkil etilib, ushbu muassasalarda sudlar tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jinoiy jazolarni ijro etiladi.

Jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunlariga asosan, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar koloniya va turmalarda o'taladi.

Koloniya va turmalarda jazoni o'tash deganda, sud tomonidan jazo tayinlangan shaxsni Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan tartib-qoidalariga muvofiq, jazoni ijro etish maqsad va vazifalari, shakli, mahkumlar bilan ishlash usullari, mahkumga bo'lgan talab, boshqaruv apparatining tarkibiy tuzilmasini belgilaydigan, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tegishli koloniya va turmada o'tash tartibi tushuniladi.

Xorij olimlaridan N.A.Struchkov aytib o'tgan fikrlarga ko'ra, mahkumga nisbatan ozodlikdan mahrum qilishdan boshqa jazoni qo'llash mumkin emas degan qat'iy xulosaga kelingan taqdirdagina bu jazo tayinlanadi, jazoning maqsadidan kelib chiqqan holda mahkumga ozodlikdan mahrum qilish orqaligina tarbiyalash mumkin degan qat'iy fikrga kelinsagina bu jazo tayinlanadi. Ashaddiy jinoyatchilarni jamiyatdan ajratib ular ustidan qattiq nazorat o'rnatishdan boshqa samarali ta'sir chorasi yo'q[17].

Yu.A.Krasikov esa ozodlikdan mahrum qilish – mahkumni sud hukmida ko'zda tutilgan muddatda majburiy tarzda jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan asosiy jazo turi bo'lib, u boshqa jazolardan mahkumni huquqiy maqomida cheklashlar nisbatan ko'proq bo'lishi bilan farqlanadi. Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumning huquqiy maqomi, avvalambor, uning jamiyatdan ajratilganligi hamda unga mehnat faoliyatini tanlash, o'z vaqtini tartibga solish,

moddiy ta'minlash, qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan muloqotining cheklanishi va boshqa talablarning belgilanishi bilan izohlanadi[18].

Demak, ozodlikdan mahrum qilish jazosi boshqa jazo turlaridan o'zining ta'sirliligi va nisbatan qattiqligi bilan ajralib turadi, chunki ozodlikdan mahrum qilish shaxsning ozodligini cheklashdan tashqari uning normal hayot tarzining o'zgarishiga va fuqarolik huquqlari cheklanishiga olib keladi. Ushbu jazo turi shaxsning hayot tarzini o'zgartirishi bilan birga uning psixologiyasiga nisbatan ham katta ta'sir o'tkazadi. Shu sababli ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashda sodir etilgan qilmishning og'irligi va qilmishni sodir etgan shaxsning xususiyatlari chuqur tahlil qilinishi lozim. Aks holda jazo turini noto'g'ri qo'llash salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida”gi qarorida ham ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashda sudlar tomonidan e'tibor beriladigan masalalar yoritilgan bo'lib, unga ko'ra ozodlikdan mahrum qilish jazo tariqasida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan shaxslarga, shuningdek sudlanuvchining shaxsini inobatga olgan holda —ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan, agar bunday shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatishning imkoni bo'lmasa, qo'llaniladi.

Sudlar qisqa muddatga (bir yilgacha) ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llashda ishning barcha holatlaridan, aybdorning shaxsidan kelib chiqishlari va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo qo'llanilishi imkoniyati yo'qligi sabablarini hukmda asoslantirishlari lozim[19].

Yuridik nuqtayi nazardan, **ozodlikdan mahrum qilish jazosi** O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan jazo turlaridan biri bo'lib, uni qo'llash tartibi, muddatlari va shartlari qonunchilikda aniq ifodalangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish jazosi kodeksning tegishli moddalariga ko'ra sud hukmi bilan va jinoyatning og'irlik darajasiga ko'ra qo'llaniladi.

Jinoyat kodeksning 50-moddasi muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir.



Ozodlikdan mahrum qilish bir oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi.

Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga belgilanadi va faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning ikkinchi qismi) va terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun tayinlanishi mumkin.

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan tayinlanishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum qilish bir necha jazolarni qo'shish tartibida tayinlanganda, uning muddati yigirma besh yilgacha belgilanishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan erkaklarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni manzil-koloniyalarda;

b) qasddan og'ir jinoyat sodir etganlik va o'ta og'ir jinoyati uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

v) ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib yoki o'tayotgan chog'ida, qasddan yangi sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda;

g) o'ta xavfli retsdivistlarga nisbatan jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'tash tayinlanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlar, shuningdek afv etish tartibida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar ham jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o'taydilar.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlarga hamda qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlarga nisbatan jazoni manzil-koloniyalarda;

b) og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun jazoni umumiy tartibli koloniyalarda;

v) ilgari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tab chiqib, yangi sodir etgan o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinayotganlarga,

shuningdek o'ta xavfli retsdivist deb topilganlarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'tash tayinlanadi.

Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish, jazoning muayyan qismiga, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga:

a) o'ta xavfli retsdivistlarga;

b) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganlik, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan, shuningdek qonunchilikka muvofiq yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi.

Sud tomonidan jazoni manzil-koloniya o'tashi tayinlangan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilgan taqdirda, sud uni jazoning o'talmagan qismi muddatiga umumiy tartibli koloniya o'tkazadi[20].

Yuqorida keltirilgan fikrlar va ozodlikdan mahrum qilish jazosiga berilgan tariflar orqali ushbu jazo turini asosan mahkumlarni jamiyatdan ajratish va davlat tomonidan ta'sir choralarini qo'llashni anglatuvchi jazo turi sifatida tushunmoqdamiz.

Fikrimizcha ushbu jazo turini va mohiyatini hozirgi zamon ruhiga moslashtirishimiz lozim va quyidagicha ta'riflash o'rindir:

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi – faqatgina sud tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan, mahkumning xulq atvorini va ongida jinoyat sodir etishdan tiyilish hamda qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash uchun jamiyatdan vaqtinchalik ajratish, shaxsni jamiyatga qayta tayyorlashni anglatuvchi jazo turidir.

Ta'kidlash joizki, ushbu tarif hozirda mavjud ozodlikdan mahrum qilish jazosiga har tomonlama ham to'g'ri kelmaydi, ammo ushbu jazo turi bosqichma-bosqich isloh qilish, mahkumlarni ular sodir etgan jinoyat uchun faqat jamiyatdan va fuqarolik huquqlaridan mahrum qilgan holda izolatsiyalash emas, balki uni jamiyatga qaytishi uchun qayta tayyorlash lozim.

Bu harakatlar ularni kasbga o'qitish, huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ayrim fuqarolik huquqlaridan foydalanishga yo'l qo'yish orqali amalga oshirilishi mumkin.



Аннотация. В данной научной статье всесторонне проанализированы понятие наказания в виде лишения свободы, его теоретические источники и правовая сущность, как одного из важнейших видов уголовных наказаний. Автором изучены научные взгляды отечественных и зарубежных ученых, касающиеся института наказания, раскрыты их сходства и отличительные особенности. В статье проанализированы нормы уголовного и уголовно-исполнительного законодательства Республики Узбекистан, а также обоснована значимость принципов справедливости, целесообразности и индивидуального подхода при назначении наказания в виде лишения свободы.

Ключевые слова: лишение свободы, уголовное наказание, уголовное право, уголовно-исполнительное право, функции наказания, ресоциализация, уголовная ответственность, судебный приговор, учреждения исполнения наказаний, либерализация наказания.

Annotation. This scientific article provides a comprehensive analysis of the concept of imprisonment, its theoretical sources, and its legal nature as one of the most significant types of criminal punishment. The author examines the scholarly views of both domestic and foreign researchers on the institution of punishment, identifying their similarities and distinctive features. The article also analyzes the norms of the criminal and penal legislation of the Republic of Uzbekistan and substantiates the importance of the principles of justice, expediency, and an individual approach in the application of imprisonment.

Key words: imprisonment, criminal punishment, criminal law, penal law, functions of punishment, resocialization, criminal liability, court judgment, penal institutions, liberalization of punishment.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Стручков Н.А. О наказании, системе его видов и иных мерах уголовно-правового воздействия. В сб. Актуальные проблемы уголовного права. – М., 1988. – С.96.
2. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism – Toshkent: Ilm-ziyo, 2006.-b. 265.
3. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. B. 376.
4. Шестаков Д.А. Теория преступности и основы отраслевой криминологии: Избранное. СПб., 2015. с.13
5. Шмаров И.В. Функции и задача уголовного наказания в борьбе с преступностью. –М., “К-Пресс”. 2016. С. 49.
6. Городинец Ф.М. Основные тенденции развития наказания в виде лишения свободы / Ф.М.Городинец // Уголовно-исполнительное право. –СПб. 2017. С. 187.
7. Фойницкий И. Я. Учение о наказании в связи с тюрьмоведением. СПб., 1989. С. 214 .
8. Дементьев С.И. Лишение свободы. Уголовно-правовые и исправительно-трудовые аспекты. –Ростов-на-Дону, 1981. С. 81.
9. Никулин С.И. Российское уголовное право.Общая часть. Под.ред. В.Н Кудрявцева и А.В. Наумова. –М: Спарк. 1997. С.297
10. Сергеевский Н.Д. Русское уголовное право. Часть общая. СПб. 2006. С.163.
11. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi / nashr uchun mas’ul R.A. Muhiddinov va boshq.; mas’ul muharrir: N. To‘ychiyev. –Toshkent: Adolat, 2010. 344 bet.
12. Ochilov H. Jinoyat huquqi (umumiy qism): Savollar va javoblar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma / mas’ul muharrir: prof. F. Taxirov. –Toshkent: yangi asr avlodi, 2009. 85 bet.
13. Rustamboyev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga sharh. Umumiy qism. –Toshkent. Adolat. 2016. 426 bet.
14. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Mualliflar jamoasi. –Toshkent IIV Akademiyasi. 2008. 83 bet.
15. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –Toshkent. Nasaf. 2010. 426 bet.
16. Najimov M.Sh. Ozodlikdan maxrum qilish jazosini tayinlashning huquqiy asoslari va takomillashtirish muammolari: Yurid. fan. nomz. ... diss.avtoreferati. – Toshkent. 2010. B.9
17. Стручков Н.А. О наказании, системе его видов и инкх мерах уголовно-правовго воздействия. В сб. Актуальные проблемы уголовного права. –М., 1988. –С.90.
18. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / Под. Общ. Ред д.ю.н., Председателя Верховного Суда РФ В.М. Лебедева. 4-е изд., пераб, и доп. М.: Норма, 2005. С. 131.
19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3 fevralda qabul qilingan “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori
20. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 50-moddasi.